

## Xalqaro tadqiqotlar asosida ona tili darslarini takomillashtirishning usul va vositalari

**Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi,  
Andijon shahar Do‘stlik ko‘chasi 4-uy, E-mail: [nismadiyorova1995@gmail.com](mailto:nismadiyorova1995@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro tadqiqotlarda ko‘zlangan asosiy maqsad haqida fikr yuritilib, o‘qib tushunishni rivojlantirishga qaratilgan dars usuli va uni 7-sinf ona tili darsligi bilan ishlash haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘z.** Xalqaro tadqiqotlar, ona tili darsligi, “Panja”, “Oqbo‘yin”, “Tarqalgan so‘zlar”, “Ta‘rif bering” usullari.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta‘lim mazmunini isloh qilish va uni rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonda ona tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb hisoblanib, ona tili mazmuniga o‘qish savodxonligini oshirish ko‘nikmasini singdirish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta‘lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”<sup>1</sup>, – deb ta‘kidlaydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Shuningdek, bu borada dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta‘lim maktablarida joriy qilish muhimligi diqqat markazida bo‘ldi. Ushbu jarayonlar orqali o‘quvchilarni shaxs sifatida tarbiyalash, maktabda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash darajasini oshirish, eng muhimi, yuz berayotgan faoliyatlarda tushunib ishtirok eta olish ko‘nikmasini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Xalqaro tadqiqotlarda o‘qish savodxonligi tushunchasi keng ma‘no kasb etadi. Bu yo‘nalish maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi> (murojaat sanasi 19.05.2024)

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_o%CA%BBquvchilarni\\_baholash\\_dasturi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi) (murojaat sanasi 16.09.2024)



## “Panja” texnologiyasi



1-rasm. “Panja” texnologiyasi mohiyati.

“Panja” metodi o‘quvchilarning yirik hajmli matnlarni o‘qib tushunishiga yordam beradi. Metodning mohiyati matn qismlarga ajratiladi, savol tuziladi, soddalashtiriladi, kerakli ma’lumotlar jamlanadi va muhim qismlari yod aytiladi. Ushbu metodni 7-sinf darsligidagi “Veterinar” bo‘limida, shuningdek, matn ustida ishlash bilan bog‘liq barcha mavzularda foydalanish mumkin. Ushbu darslikdagi “Oqbo‘yin”<sup>3</sup> qissasidan olingan matni ustida ishlashda “Tarqalgan so‘zlar”, “Ta’rif bering” usullarini qo‘llash yaxshi samara beradi. Ushbu metodlarni 7-sinf o‘quvchilarida qo‘llaganimizda ushbu badiiy matnni qismlarga ajratdilar, 1-o‘quvchi quyidagi savollarni tuzdi: 1. Itni farqiga boradigan qahramon kim? 2. Karim podachi uchun it nega kerak? 3. Karim podachining itlariga nima bo‘lgan? O‘quvchi ushbu savollar asosida ma’lumotlarni jamlaydi va quyidagicha javob qaytaradi: Oqbo‘yin tovuq patiga qiziqadi, sababi uni oldin ko‘rmagan. Podachiga it qiziqish uchun emas, balki hayvonlarini bo‘ridan himoyalashga kerak. Karim podachining iti zaharli go‘shtdan o‘lgan, keying iti qo‘rqoq, qochib ketadi. Bu o‘quvchi “kapalakni uchirishi” kerak bo‘ladi, o‘quvchining javobi: norg‘ul-gavdali, jussali, yosh. Bulardan yosh to‘g‘ri emas, barvasta mos keladi. 2-o‘quvchi: 1. Ona it nega tuni bilan g‘ingshiydi? 2. Karim podachi nega shamolladi? 3. Yoldorga qo‘yilgan tuzoqqa nima bo‘ldi? O‘quvchining matn bo‘yicha tayyorlagan nutqi: - Keldi-ketdi mehmonlar ko‘p bo‘ladi, ba’zilari kuchukchalardan olib ketadi, bolasidan ayrilgan ona it tun bo‘yi g‘ingshiydi. Karim podachi ham keldi. U ham kuchukni ko‘rdi, yoqtirmadi. Bo‘rilardan ho‘kizni himoya qilaman deb shamollab

<sup>3</sup> Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M... Ona tili darslik, 7-sinf, 2022. – 123-b.



qoldi. Yoldor laqabli bo‘riga tuzoq qo‘ygan edi, unga o‘zining eshagi tushib qoladi. Sinonimlarni topish bo‘yicha topshiriq: et-teri, go‘sh, badan.

Ushbu metodlardan ko‘zlangan amaliy maqsadlar quyidagicha:

1. Matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib, uni qismlarga ajrata oladi.
2. Matndagi muhim bo‘lgan ma‘lumotlarni nisbatan muhim bo‘lmagan ma‘lulotlardan farqlay oladi.
3. Anglash jarayonida ma‘lumotlar analiz va sintez qilinadi.
4. So‘z boyligi oshadi, matnda so‘zlarni qo‘llashni, nutqqa ko‘chirishni rivojlantiradi.
5. Og‘zaki nutq so‘zlash, gapirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

“Ta’rif bering” va “Tarqalgan so‘zlar” kabi dars usuli o‘quvchilarda so‘z boyligi oshiradi. Inson ongida so‘z zaxirasi ikkiga ajratiladi: faol so‘zlar va nofaol so‘zlar. Faol so‘zlar inson nutq jarayonida qo‘llaydi. Nofaol so‘zlar nutq jarayonida ishlatilmaydi, ammo bu kabi so‘zlar bilan eshitish yoki o‘qish davomida to‘qnash kelinganda ma’nosi tushuniladigan so‘zlar. Ushbu dars usullari o‘quvchilarning nofaol so‘zlarini faol so‘zlarga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** O‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarga tayyorlash, faol shaxs sifatida shakllantirish va qaror qabul qila olishlarini rivojlantirish bugungi ona tili mazmunini tashkil etadi. Ona tili darslarini xalqaro tadqiqotlar asosida tashkil etish orqali ularning anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi> (murojaat sanasi 19.05.2024)
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_o%CA%BBquvchilarni\\_baholash\\_da\\_sturi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_da_sturi) (murojaat sanasi 16.09.2024)
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M... Ona tili darslik, 7-sinf, 2022. – 123-b.
4. Bahromov A. Maktab darsliklarining yangi avlodini yaratish mezonlari. // Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi axborotnomasi – Toshkent, 2001. № 3-4. – B. 63-66.

